



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**FAN:**

**«O'ZBEKISTONNING YANGI TARIXI»**

MAVZU

**07**

**Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning  
shakllanishi. O'zbekistonda bozor  
munosabatlarning rivojlanishi**



# Reja:



1. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari.
3. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi. O‘tish davrida bozor iqtisodiyoti tushunchasi, unga o‘tish zarurati, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning «O‘zbekiston yo‘li» kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb masalalaridan biri edi. Ma’lumki, hozirda rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya)ning deyarli barchasi bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanlagan bo‘lib, shu asosda iqtisodiy taraqqiyotini belgilab kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish XX asrga xos bo‘lgan umumjahon voqelikdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish kishilarning xohish – irodasi emas, balki ob’ektiv zaruratdir.

**Bozor iqtisodiyoti deganda, tovar – pul munosabatlarigi asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar, ya’ni bozor munosabatlari tamoyillari asosida boshqariladigan iqtisod tushuniladi.** Bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud. U bir necha ming yillardan beri rivojlanib, turli iqtisodiy – ijtimoiy tizimlar doirasida saqlanib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish – bu shunchaki maqsad emas, balki iqtisodda bozor munosabatlarini shakllantirish, jamiyatni yangilash yo‘lidir, ya’ni iqtisodiy faoliyat erkinligiga, mulchilikning xilma – xilligiga, narx erkinligiga, raqobat qurashiga, shaxsiy huquq va erkinliklarning qaror topishiga, daromadning cheklanmaganligiga erishish demakdir.

## Бозор иқтисоди муносабатларига асосланган жамиятни барпо этишнинг асосий шарти:

---

- 1. Давлат мулкини хусусийлаштириш;**
- 2. Кўп укладли иқтисодни вужудга келтириш;**
- 3. Ишлаб чиқариш корхоналари ва мулкдорлар ўртасида ўзаро рақобатлашиш учун зарур шарт-шароитлар яратиш;**
- 4. Мулкдорлар синфини шакллантириш.**

# Yangidan mustaqil bo`lgan yosh mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar 2 yo`nalishda amalga oshirildi

1

Milliy mustaqillikni iqtisodiy jihtdan ta'minlashni ko`zlagan islohotlar

2

Rejali iqtisodiyotdan bozor tizimiga o'tishga qaratilgan, ya'ni bozor islohotlari yo`nalishlaridagi islohotlar

# Milliy mustaqillikni iqtisodiy jihtdan ta'minlashni ko'zlagan islohotlar

---

Milliy pulni muomalaga kiritish, mustaqil bank, byudjet va soliq tizimlarini joriy etish, bojxona xizmatlarini tashkil etish va milliy iqtisodiy chegaralrni o`rnatish hamda ishlab chiqarish tuzilmasini o`zgartirish kabilar

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to`g`risida”gi 1994-yil 16-iyundagi farmoni bilan 1994-yil 1-iyulidan respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to`lov vositasi sifatida so`m muomalaga chiqarilgan

# Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari

**1**

- iqtisod siyosatdan ustun turib mafkuraviy tayziqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak:

**2**

- davlat bosh islohotchi o'rnida bo'lib, uning yo'nalishlarini belgilab beradi va amalga oshiradi:

**3**

- bozor munosabatlariga o'tish qonun ustivorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitusiya va qonunlarga amal qilinishi shart:

**4**

- bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini kuchli himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

**5**

- bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyusion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'i zarur.



# Mamlakatda mulk shakllarining isloh qilinishi va uning qoidalari

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat mulkini xususiylashtirish iqtisodiy islohotlarning ichki mantig`iga bo`ysundiriladi va ularning asosini tashkil qiladi




Mulknı xususiylashtirish davlat tomonidan boshqariladi

Xususiylashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatdan ta'minlashda qonunlarga rioya etiladi



## Ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар Акселератори йўналишлари





2018-yilda 2017-yilga nisbatan asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlar



# “Har bir oila – tadbirkor” dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda



**Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri sifatida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirish. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, mulkdorlar sinfi shakllandi, xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligi oshdi.**

**Mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda ikki bosqichda amalga oshirildi.**

**Birinchi bosqich** 1992-1993 yillari amalga oshirildi. Bu davrda asosan maishiy xizmat, savdo korxonalarini, transport va qurilishning kichik korxonalarini, qayta ishlash korxonalarini mulk shakli o'zgartirilib, mulkning ijara, jamoa, aksiyadorlik shakllari vujudga keldi. Uy-joylar xususiylashtirildi.

**Ikkinchi bosqich** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tashqil etilib, korxonalar aksiyalarini chiqardilar, auksion savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, xususiylashtirishni yoppasiga olib borish ko'zda tutildi.

## Давлат мулкани хусусийлаштириш.

**1992-1993 йилларда 28,8 минг юридик шахс 53,9 мингта хусусий объект эгаси бўлди.**

**Шу йилларда 1 миллион квартира хусусийлаштирилди.**

---

**2002 йилда Ўзбекистон аҳолисининг асосий қисми қайсидир шаклдаги мулк эгаси бўлди.**

**Хусусийлаштириш дастурига асосан дастлабки босқичда умумий уй-жой фонди, савдо, маҳаллий саноат, хизмат кўрсатиш корхоналарини ҳамда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини тайёрлаш тизими қамраб олди.**

**Бу «кичик хусусийлаштириш» деб ном олди. Кичик хусусийлаштириш 1994 йилдаёқ тугалланди.**

**1992-1994 йилларда 54 мингга яқин корхона ва объект давлат тасарруфидан чиқарилди. Уларнинг 18,4 мингтаси хусусий мулк бўлиб қолди.**

**1994 йилда мамлакат ялпи ижтимоий маҳсулотининг деярли ярми иқтисодиётнинг нодавлат секторида ишлаб чиқилди, бу секторда 4 миллионга яқин киши иш билан банд бўлди.**

**Ҳар 3 кишининг биттаси эгасига имтиёзли шартлар билан ёки бепул квартира берилди.**

**Мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришга доир 20 дан ортиқ давлат дастури қабул қилинди. Ўзбекистонда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш чоғида аҳоли учун имтиёзли тизим яратилди.**

**2003 йил бошида хусусий ва кичик корхоналар сони 120 мингдан ошди.**

## Иқтисоднинг аграр соҳасидаги ўзгаришлари

**1991-2003 йиллар давомида қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш масалалари бўйича 10 дан ортиқ қарорлар қабул қилди.**

**2003 йилда 3541 минг гектар экин майдонининг 3326 минг гектари ёки 94% ширкат, фермер ва деҳқон хўжаликлари ихтиёрида бўлса, бугунги кунда улар деярли шундан 992 минг гектари фермер хўжаликлари тасарруфига ўтди.**

**Республикада етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 99 фоизи иқтисодиётнинг нодавлат сектори ҳиссасига тўғри келади.**

**1991 йилгача мамлакатимизда 1 миллион 842 минг хонадон газлаштирилган бўлса, бу кўрсаткич 1997 йилда 3 миллион 155 мингга етди.**

**Қишлоқларда 2 миллионга яқин иш жойи яратилди.**



**650 минг кишини касбга тайёрлаш мўлжалланди.**

**2003 йилдан Тошкент давлат аграр университетининг Нукус филиали иш бошлади ва воҳа қишлоқ хўжалигини кадрлар билан таъминлашга хизмат қилмоқда.**







## ЧОРВАЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ



## ҚОРАМОЛ БОШЛАРИ СОНИ





# Ўзбекистонда замонавий автомобиль ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш

И.Каримов бошчилигидаги давлат делегациясининг 1992 йил июнь ойида Жанубий Корея Республикасига қилган расмий ташрифи чоғида икки давлат ўртасида ўзаро иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш тўғрисида дастлабки ҳужжатлар имзоланди;

1992 йил август ойида эса Жанубий Корея билан ҳамкорликда автомобиль ишлаб чиқарувчи қўшма корхона барпо этиш тўғрисида келишиб олинди.

«ЎЗДЕУавто» корхонаси қурилиши 1993 йил февралда бошланиб, 1996 йил 19-июлда - 32 ой мобайнида битди. Йилига 200 минг автомобил ишлаб чиқара оладиган бу улкан иншоотнинг умумий қиймати 658 миллион АҚШ долларини ташкил этди;

2002 йилдан бошлаб корхонада «Матиз» ва «Нексия-2», 2003 йилдан «Ласетти» русумидаги янги автомобиллар ишлаб чиқаришга киришилди. 1999 йил 16-март куни Самарқандда Ўзбекистоннинг яна бир автомобиль заводи иш бошлади. Бугунги кунда Япониянинг Сузуки корхонаси билан ҳамкорликда ушбу корхонада йилига минглаб турли русумдаги қулай ва ихчам автобуслар, турли хил юк ташиш машиналари ишлаб чиқарилмоқда;

1996 йилдан эътиборан В.П.Чкалов номидаги Тошкент авиация заводида маҳаллий ҳаво йўлларида қатнашга мўлжалланган 64 ўринли янги ИЛ-114 самолётлари ҳам ишлаб чиқарила бошланди;

Бугунги кунда Шевролет: Такума, Эврика, Эпика замонавий машиналари ишлаб чиқариш ҳам йўлга қўйилган.







Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда иқтисодиётнинг ривожланиши







Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда иқтисодиётнинг ривожланиши





## FOYDANILDAN ADABIYOTLAR:

1. Муртазаева Р.Х. Ba boshqalar. O`zbekiston tarixi. O`quv qo`llanma. . –T.:Akademiya 2010.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. O`zbekiston tarixi. O`quv qo`llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2021 yil. 26 yanvar



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!**

